

## 10-laboratoriya: Epistaz irsiylanish.


Epistaz tashqi ko'rinishidan dominantlikka o'xshaydi. Lekin dominantlik allel bo'limgan genlar orasida ro'y beradi. Allel bo'limgan genlar ustidan dominantlik qiluvchi genlar *supressor* yoki *ingibitor-epistatik gen* deyiladi. Ular ta'siridagi genlar *gipostatik genlar* nomini olgan. Epistatik genlar retsessiv gomozigota holatda ham bo'ladi. Dominant epistazning  $F_2$  avlodida 13:3, 12:3:1 sxemada, retsessiv epistazning ikki tomonlisida 9:7 sxemada, bir tomonlisida 9:3:4 sxemada ajralish ro'y be-radi. Epistazga oid masalalarni yechish uchun talabalar: a) o'quv qo'llanmaning 6-bob 2-§ mazmunini; b) epistazdagi allel bo'limgan genlarning o'zaro ta'sirini, ularning komplementar tipdan farqini; v) dominant, retsessiv epistazning  $F_2$  dagi ajralishni; g) gametalar olish prinsipi va genotipga qarab fenotipni aniqlashni bilishi kerak. Endi dominant epistazga doir masala yechish namunasini keltiramiz.

### Masala yechish metodikasi

**Masalaning sharti.** Qovoqda  $U$  geni mevaning sariq rangini,  $w$  geni yashil rangini ifodalaydi.  $W$  dominant,  $w$  retsessiv ingibitor.

**Mazmuni.** Oq va yashil qovoqni chatishirish natijasida hosil bo'lgan  $F_1$  ning o'zaro chatishishidan  $F_2$  da 12 ta oq, 3 ta sariq, 1 ta yashil qovoq hosil bo'lgan:


1. Ota-onaning,  $F_1, F_2$  duragaylarning genotipini aniqlang.
2. Olingan natijaga qarab, allel bo'limgan genlar orasidagi o'zaro ta'sirni tushuntiring:



$\text{♂}$	$\text{♀}$	$WU$	$Wy$	$wU$	$wy$
$WU$	$oq$ $WWUU$	$Oq$ $WWUv$	$oq$ $WwUU$	$oq$ $WwUv$	$WwUv$
$Wy$	$oq$ $WWUy$	$Oq$ $WWyy$	$oq$ $WwUy$	$oq$ $Wwy$	$Wwy$
$wU$	$oq$ $WwUU$	$Oq$ $WwUy$	$sariq$ $wwUU$	$sariq$ $wwUy$	$wwUy$
$wy$	$oq$ $WwUy$	$Oq$ $Wwy$	$sariq$ $wwUy$	$yashil$ $wwyy$	

Yuqorida yechilgan masalada: 1) qayd qilingan fenotipli urug'chi changchi o'simliklar chatishtirilib  $F_1$  oq qovoq olingan. Ularning o'zaro chatishishida hosil bo'lgan  $F_2$  da 12 ta oq, 3 ta sariq, 1 ta yashil mevali formalar hosil bo'lgan. Binobarin, ota-onaning,  $F_1$ ,  $F_2$  larning genotipini aniqlandi. 2) Olingan natijaga qarab, allel bo'lмаган genlar ta'siriga to'xtab, biz  $W$  —  $U$  genlar oq rangli,  $W$  —  $uu$  oq rangli,  $wwU$  — sariq rangli, -  $wwuu$  — genlar yashil rangli belgini namoyon qiladi ayta olamiz.  $U, u$  genlar genotipda  $W$  gen dominant bo'lмаган taqdirdagina fenotipda namoyon bo'ladi, aks holda  $W$  geni sariq rang —  $U$ , ham yashil rang —  $u$  genining ta'sirini neytrallashtiradi, deb aytish mumkin. Retsessiv epistazga doir masalani yechish.

**Masala.** Hidli no'xatning gultojibarglari qizil va oq rangda bo'ladi. Genotipi boshqa-boshqa bo'lgan ikkita oq gultoji bargli hidli no'xat guli chatishtirilgan. Natijada  $F_1$  da qizil gultojibargli formalar,  $F_2$  da  $9/16$  qizil,  $7/16$  oq gultojibargli formalar olingan. Ota-onaning,  $F_2$  va  $F_2$  duragaylarning genotipini aniqlang.



$F_2$

$\text{♂}$	$\text{♀}$	$AB$	$Ab$	$aB$	$ab$
$AB$	qizil $AABB$	qizil $AABb$	qizil $AaBB$	qizil $AaBb$	qizil $Aabb$
$Ab$	qizil $AABb$	oq $AAbb$	qizil $AaBb$	oq $Aabb$	oq $Aabb$
$aB$	qizil $AaBB$	qizil $AaBb$	oq $aaBB$	oq $aaBb$	oq $aaBb$
$ab$	qizil $AaBb$	oq $Aabb$	oq $aaBb$	oq $aabb$	oq $aabb$

### Mustaqil yechish uchun masalalar

1. Otlar yungining kulrang belgisi ikki xil allel bo'lмаган dominant gen ishtirokida rivojlanadi. Ularda  $B$  qora,  $b$  malla yungning rivojlanishiga sababchi bo'ladi. Boshqa xromosomada joylashgan  $I$  gen esda  $B$  va  $b$  genlar funksiyasini susaytiradi. Ot zavodida gomozigota kulrang biya bilan malla yungli ayg'ir chatishtirilgan.  $F_1$  da kulrang otlar olingan. Ular o'zaro chatishtirilganda  $F_2$  da 12

ta kulrang, 3 ta qora va bitta malla yungli otlar olinadi. Chatishtirishda ishtirok etgan biya va ayg'irning,  $F_1$  va  $F_2$  duragay otlarning genotipini aniqlang.

2. Tovuqlar patining rangli bo'lishi  $C$  geniga bog'liq. Bu genning retsessivi  $c$  esa rang hosil qilmaydi. Boshqa xromosomada joylashgan  $I$  gen  $C$  gen ustidan dominantlik qilgani sababli pat oq rangli bo'ladi.  $i$  geni esa  $C$  geniga ta'sir ko'rsatmaydi.

Quyidagicha genotipli tovuq va xo'rozlar chatishtirilsa,  $F_1$  da tovuqlarning pati qanday rangda bo'ladi?

$$IiCc \times iicc; \quad IIcc \times IiCc,$$

3. G'o'zaning malla va yashil tolali liniyalari chatishtirilgan.  $F_1$  da malla tolali duragaylar etishdi.  $F_1$ , duragay o'z-o'zidan changlanganda  $F_2$  da asosan malla, qisman yashil va juda oz miqdorda ok tolali o'simliklar hosil bo'lgan. Bu hodisani qanday tushuntirish mumkin?

4. Suli donining rangi ikki xil allel bo'limgan gen ta'sirida rivojlanadi. Ulardan biri donning qora, ikkinchisi kulrang bo'lishini ta'minlaydi. Qora rang hosil qiluvchi gen kulrang hosil qiluvchi gen ustidan dominantlik qiladi. Mazkur genlar retsessiv holatda donning oq bo'lishiga sababchi bo'ladi. Seleksioner qora donli sulini o'z-o'zi bilan changlatgan, nasldagi o'simliklarning 1205 tasi qora donli. 306 tasi kulrang donli, 99 tasi oq donli ekanligi ma'lum bo'lgan. Tajribadagi urug'chi va changchi va duragay o'simliklarning genotipini aniqlashda seleksionerga yordam bering.

5. Qovoq mevasining oq rangi —  $W$ , sariq rangi —  $U$ , yashil rangi —  $u$  gen bilan ifodalanadi.  $W$  gen dominant ingibitor vazifasini bajaradi. Quyidagicha genotipga ega qovoqlar chatishtirilsa, ularning fenotipi qanday rangda bo'ladi?

- a)  $wwUu \times wwUu$ ; b)  $WwUu \times Wwuu$ ; v)  $WwUU \times Wwuu$   
g)  $WWUu \times wwww$ ; d)  $WWuu \times WwUU$ ; e)  $WwUu \times wwww$

6. Ikkita sariq rangli qovoq chatishtirilgan. 3:1 nisbatda sariq va yashil qovoqlar hosil bo'lgan. Chatishtirishda ishtirok etgan qovoqlarning genotipini aniqlang.

7. Hushbo'y no'xat o'simligida  $A$  va  $B$  dominant genlar genotipda alohida bo'lganda gultojibarglari oq, birgalikda bo'lganda gultojibarglari qizil rangda bo'ladi  $aabb$  genotipli formalar esa oq gultojibarglidir.

1.  $AaBb \times aabb$  2.  $AaBb \times aaBb$ ; 3.  $AaBb \times AaBb$  chatishtirishdan hosil bo'lgan  $F_1$  bo'g'inda gulgojibarglar qanday rangda bo'ladi?

8. G'o'zada  $B$  gen tolanning malla,  $b$  gen oq rangda bo'lishni ta'minlaydi.  $A$  gen esa yuqoridagi har ikkala gen ta'sirini bo'g'ib, tolanning yashil rangda bo'lishiga olib keladi.  $a$  gen esa tola rangida ta'sir ko'rsatmaydi.  $aaBB$  va  $AAbb$  genotipli liniyalarni chatishtirib  $F_1$  da 116 ta o'simlik,  $F_1$  o'z-o'zini changlatishidan  $F_2$  da 800 o'simlik olingan:

- a)  $F_1$  dagi o'simliklarning qanchasi yashil tolali?  
b)  $F_2$  dagi o'simliklarning qanchasi malla, qanchasi yashil, qanchasi oq tolali bo'lgan?

9. Zig'ir gultojibarglari chetining kungurador bo'lishi

A, tekisligi— $a$ , genlarga bog'liq.  $l$ —gen ingibitor vazifasini bajaradi,  $i$ —gen gultojibarg shakliga ta'sir ko'rsatmaydi. Quyidagicha chatishtirishdan qanday genotipli va fenotipli duragaylar olinadi?

a)  $IIAA \times iiaa$ ; b)  $IiAa \times iiaa$ ; v)  $IIAA \times IIaa$ .

10. Gomozigota qo'ng'ir yungli it gomozigota oq yungli it bilan chatishtirishdan  $F_1$  oq yungli it olindi.  $F_1$  da erkak va urg'ochi itlar o'zaro chatishtirilgan edi.  $F_2$  236 oq, 64 qora, 20 qo'ng'ir yungli itlar tug'ildi. Olingan natijani genetik jihatdan izohlab bering.

11. Qovoq o'simligining meva po'sti oq rangli formalari chatishtirilgan edi.  $F_1$  71 qovoq meva po'sti oq, 19 sariq, 6 yashil rangli bo'ldi. Olingan natijani tushuntiring, urug'chi va changchi o'simliklarining genotipini aniqlang.

12. Piyozboshning oq rangli genotipi har xil formalar bir gal chatishtirilganda  $F_1$  oq piyozbosh.  $F_2$  avlodida 1200 oq 380 rangli piyozbosh olindi. 2-chatishtirish esa  $F_1$  oq piyoz bosh olindi. Ularni  $F_2$  avlodida 1184 oq piyoz bosh, 398 rangli piyozbosh rivojlandi. Xar ikki tajribada urug'chi, changchi va duragay piyozboshlarni genotipini aniqlang va izohlang.

13. Oq va qora rangli itlar chatishtirilgan edi  $F_1$  8 ta itlarni 4 tasi oq yungli, 3 tasi qora yungli, 1tasi qo'ng'ir yungli bo'ldi. Ota va ona va duragay itlarning genotipi qanday?

### **Mustaqil ravishda masala tuzish**

1. Itlarning ... junli urg'ochisi ... junli erkak formasi bilan chatishtirilgan. 50% ... junli, 25% ... junli, 25% ... junli itlar tug'ilgan. Erkak, urg'ochi itning va  $F_2$  dagi itlarning genotipini aniqlang.

2. Genotipi har xil, fenotipi o'xhash bo'lган иккى хил пийоз чатиштирилган.  $F_1$  да ... rangli piyozboshlar, ularning o'zaro chatishishidan  $F_1$  da ... oq rangli piyozbosh hosil bo'lган. Chatishtirishda ishtirok etgan urug'chi va changchi piyozboshlarning,  $F_1$  va  $F_2$  duragaylarning ... va ... ni aniqlang.